



Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 143,2 mingtani tashkil qilib, shundan 96,7 mingtasi yoki 67,5 % faoliyat ko'rsatmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (ro'yxatga olinganlarning umumiy sonidan 32,0 %), sanoat (12,7 %), qurilish (7,9 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,7 %) sohaslariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar taqsimoti (2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra)**

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	jamiga nisbatan, foizda	birlik	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	<b>143171</b>	<b>100,0</b>	<b>96707</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	1245	0,9	563	0,6
Sanoat	18156	12,7	10894	11,3
Qurilish	11381	7,9	6726	7,0
Savdo	45763	32,0	30920	32,0
Tashish va saqlash	5753	4,0	3960	4,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9615	6,7	5705	5,9
Axborot va aloqa	6820	4,8	4752	4,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2671	1,9	2161	2,2
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	41767	29,1	31026	32,1



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning miqdori 32,0 % savdo sohasida, 11,3 % sanoat sohasida, 7,0 % qurilish sohasida, 5,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,8 % axborot va aloqa, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida va 32,1 % boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlarning soni 86,5 mingta bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 75,4 mingta, xususiy korxonalar – 7,3 mingta, oilaviy korxonalar – 2,9 mingta, unitar korxonalar – 0,2 mingta, aksiyadorlik jamiyatlar – 0,2 mingta va 0,2 mingta boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat yuridik shaxslarning taqsimoti, birlikda



2024-yil yanvar–iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonasi va tashkilotlarning soni 8,4 mingtani tashkil etgan bo'lib, shundan kichik biznes sub'ektlari 8,0 mingtani tashkil qiladi.

Jami yangi tashkil etilgan korxonasi va tashkilotlarning eng ko'p qismi Mirzo Ulug'bek (1014 ta), Yunusobod (975 ta), Chilonzor (955 ta), Yashnobod (780 ta), Olmazor (757 ta), Yakkasaroy (783), Shayxontohur (714 ta), Mirobod (663 ta) Uchtepa (594 ta) va Sergeli (567 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi. Aksincha, Yangihayot (425 ta) hamda Bektemir (205 ta) tumanlarida korxonasi va tashkilotlar tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

2024 -yil 1-iyul holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonasi va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) birlikda





**Korxonalar va tashkilotlar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(birlikda)

	2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatga olinganlar	2024- yil yanvar-iyun oylarida	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Toshkent shahar</b>	<b>129948</b>	<b>8034</b>	<b>1599</b>
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	11030	569	127
Bektemir	3520	198	47
Yunusobod	15883	926	156
Mirzo-Ulug'bek	14966	968	186
Mirobod	10404	629	108
Shayxontohur	11894	680	168
Olmazor	12762	730	209
Sergeli	7382	541	96
Yakkasaroy	11372	756	119
Yashnabod	11108	733	140
Yangiheyot	3623	398	38
Chilonzor	16004	906	205



2024-yil yanvar–iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarning soni 84,7 mingtani tashkil etgan (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz).

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi 10000 birlik Chilonzor, 9951 birlik Yunusobod, 9968 birlik Mirzo Ulug'bek, 8015 birlik Olmazor, 7497 birlik Shayxontohur, 7620 birlik Yakkasaroy, 7508 birlik Yashnobod, 7027 birlik Mirobod hamda 6902 birlik Uchtepa tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Faoliyat ko'rsatayotganlarning kam qismi 5104 birlik Sergeli, 2576 birlik Yangihayot hamda 2518 birlik Bektemir tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.




2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan jami 84 686 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 30 473 birligi (36,0%) – savdoda, 10 669 birligi (12,6%) – sanoatda, 6 613 birligi (7,8 %) – qurilishda, 5 639 birligi (6,7 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 4 553 birligi (5,4 %) – axborot va aloqa sohasida, 3 860 birligi (4,6 %) – tashish va saqlashda, 1 852 birligi (2,2 %) – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 547 birligi (0,6 %) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida, shuningdek 20 480 birligi (24,1 %) – boshqa faoliyat turlari hissaloriga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, foizda  
2024-yil 1-iyul holatiga



Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari turlariga to'g'ri keladi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**


2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatga olingan korxonalar soni 13 076 birlikni, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 9 116 birlikni tashkil etadi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonadan 2 343 tasi qo'shma korxonalar, 6 773 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning o'sish dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda  
2024-yil 1-iyul holatiga



Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turiga to'g'ri keladi, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.





Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida, birlikda

Mirobod tumani	1523	Shayxontohur tumani	613
Yakkasaroy tumani	1367	Olmazor tumani	474
Mirzo Ulug'bek tumani	1273	Sergeli tumani	439
Yunusobod tumani	1025	Uchtepa tumani	238
Yashnobod tumani	866	Bektemir tumani	237
Chilonzor tumani	835	Yangihayot tumani	226

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot  
2024 - yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

1 199	Mirobod	324
1 061	Yakkasaroy	306
960	Mirzo Ulug'bek	313
770	Yunusobod	255
613	Yashnobod	253
598	Chilonzor	237
425	Shayxontohur	188
332	Sergeli	107
311	Olmazor	163
170	Uchtepa	68
157	Bektemir	80
177	Yangihayot	49



Xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil topgan korxonalar  
davlatlar kesimidagi soni, birlikda

2024- yil yanvar-iyun oylarida



Oilaviy korxonalar soni

2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 4 634 birlikni tashkil etdi, ulardan 2 978 birlik yoki 64,2 % faoliyat yuritmoqda.


Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni ko'rilganda oilaviy korxonalar sonining 24,4 % yoki 728 tasi sanoat, 31,1 % yoki 929 tasi savdo, 21,6 % yoki 644 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 0,8 % yoki 26 tasi qishloq o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,2 % yoki 37 tasi axborot va aloqa, 0,8 % yoki 24 tasi qurilish, 2,5 % yoki 75 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % yoki 32 tasi tashish va saqlash hamda 16,2 % yoki 483 tasi boshqa faoliyat turlari hissalari to'g'ri kelmoqda.



2024-yil 1-iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining ulushi, foizda



2024-yil 1-iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining sonini ko'rilganda eng katta soni sanoat va savdoda, eng kichik soni esa qurilish, sog'liqni saqlash hamda tashish va saqlash xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tuzilishi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016– yil 24– avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275– son qarorining 1– ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.